



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2025- yil
yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

69,9



**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da**

1 238,2



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

68,3




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)

2025- y.

69,9 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

63,8 %

2021- y.

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar)

75,1 %


2025- y.

Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.

60,4 %

Soni, birlikda.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)

65,7 %



2025- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



59,3 %


Soni, birlikda




Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar)


2025




2024




2023



2022



2021



2025- y.



68,6 %

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


59,7 %



2021- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissi

(2025- yil yanvar)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024- yil yanvar oyi hajmi va 2025- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	2 551,2	100,0	110,4
tumanlar:			
Olot	62,6	2,3	109,2
Buxoro	96,4	3,8	108,3
Vobkent	84,9	3,3	105,6
G'ijduvon	228,5	9,0	108,5
Kogon	58,0	2,3	113,6
Qorako'l	79,5	3,1	108,2
Qorovulbozor	35,3	1,4	107,6
Peshku	111,4	4,4	121,1
Romitan	99,5	3,9	108,2
Jondor	106,4	4,2	109,2
Shofirkon	83,5	3,3	108,1
shaharlar:			
Buxoro sh.	731,6	28,7	111,8
Kogon sh.	65,5	2,6	104,1

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)

■ Hajmi, ming so'mda
● O'sishi, % da




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025- yil yanvar)

■ Hajmi, ming so'mda
◆ O'sish sur'ati, % da

Shahar va tumanlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro shahri	2 460,0	◆ 109,7
Qorovulbozor	1 756,2	◆ 105,5
Kogon shahri	1 006,0	◆ 102,7
Peshku	842,0	◆ 119,0
G'ijduvon	703,0	◆ 106,7
Kogon	679,8	◆ 111,2
Romitan	653,2	◆ 106,6
Olot	595,5	◆ 107,6
Jondor	568,3	◆ 107,3
Vobkent	566,2	◆ 103,8
Buxoro	535,4	◆ 106,2
Qorako'l	459,1	◆ 106,8
Shofirkon	445,5	◆ 107,0


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)

■ Hajmi, ming so'mda
● O'sishi (kamayishi) % da



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,3** foizni, shu jumladan, **34,9** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2025- yil yanvar)




Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, xizmatlar sohasiga tegishli G dan S gacha bo'limlarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	2 551,2	100,0	110,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	96,4	3,8	116,5
Moliyaviy xizmatlar	370,9	14,5	103,9
Transport xizmatlari	513,3	20,1	111,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	465,2	18,2	108,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	597,7	23,4	110,0
Savdo xizmatlari	493,1	19,3	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	41,4	1,6	109,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	104,2	4,1	141,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	50,1	2,0	108,2
Ijara xizmatlari	48,9	1,9	102,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	57,8	2,3	111,7
Shaxsiy xizmatlar	58,8	2,3	107,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,0	0,8	108,9
Boshqa xizmatlar	99,6	3,9	105,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar) ¹⁾



2025-yilning yanvar oyida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **23,4** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **95,9** %.


Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025- yil yanvar)



¹⁾ norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi, % da


Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,6** foiz.

Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **116,7** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlarining o'sishi **22,3** foiz darajasida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari (2025- yil yanvar)




¹⁾ norasmiy va yashirin iqtisodiyotni

statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾

2025- yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **65,6 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2025- yil yanvar)



Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi, % da
Buxoro shahri	100,8	+6,7
G'ijduvon	65,5	+6,9
Peshku	49,1	+50,8
Jondor	27,0	+10,0
Buxoro	25,6	+8,2
Romitan	25,3	+9,9
Vobkent	24,6	+1,5
Shofirkon	23,6	+8,1
Qorako'l	23,2	+6,9
Kogon	21,0	+8,0
Olot	18,7	+9,1
Kogon shahri	16,4	+7,1
Qorovulbozor	13,4	+10,7


¹⁾ norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar)


Hajmi, mlrd. so'mda
O'sish sur'ari, % da



Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2025- yil yanvar, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025-yil yanvar** oyida **94,0** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **65,1** foizni yoki **241,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2024- yil yanvar** oyiga nisbatan ushbu shaharda yuqori o'sish sur'ati **103,0** foiz darajasida qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **69,9** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)

Buxoro shahri	78,0
Kogon	3,9
Qorako'l	2,3
G'ijduvon	1,9
Jondor	1,4
Buxoro	1,3
Romitan	1,2
Shofirkon	1,2
Peshku	1,0
Kogon shahri	0,9
Vobkent	0,8
Olot	0,6
Qorovulbozor	0,4



Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2025-yilning yanvar** oyi davomida mazkur shaharda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **78,0** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **74,9** foizini tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari egallaydi. **2025-yilning yanvar** oyidagi ulushi **10,8 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025- yil yanvar)




¹⁾ norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi, % da


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **32,2** foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025- yil yanvar)




¹⁾ norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sishi, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **36,7** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **34,7** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **10,4** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar)

Buxoro shahri	25,5	107,5
G'ijduvon	3,5	106,0
Buxoro	2,2	110,1
Kogon shahri	1,6	108,0
Qorako'l	1,4	106,0
Jondor	1,2	110,2
Peshku	1,1	107,8
Vobkent	0,9	104,5
Shofirkon	0,9	106,9
Romitan	0,9	106,5
Olot	0,8	108,4
Kogon	0,7	104,3
Qorovulbozor	0,3	112,5

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sish sur'ati, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



2025-yilning yanvar oyida ijara xizmatlari hajmi **48,9** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **53,2** foizni tashkil etadi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **83,3** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


(2025- yil yanvar)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



2025- yilning yanvar oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **19,0** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **15,0** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41